

Chirchiq shahar
11-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot o'qituvchisi
K.A. Muhammadiyevaning
5-sinf uchun adabiyot fanidan
bir soatlik dars ishlanmasi



Sana:

Sinf:5-" V"

Dars mavzusi: Zahiriddin Muhammad Bobur Ruboiylari

Dars maqsadi:a) ta'limiy maqsad:Boburning hayoti va adabiy merosi haqida ma'lumot berish;b)tarbiyaviy maqsad:Boburning shaxsiy hayoti va ruboiylaridagi g'urbat,musofirlik motivlarini adabiy tahlil qilish jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish;d)rivojlantiruvchi maqsad:shoir ruboiylarini o'qish va tahlil qilish .

Darsning metodi:tarmoq,aqliy hujum,"ruboiyning radifini top"adabiy o'yin musobaqasi,guruhda ishlash,tarmoq.

Darsning jihozi:Bobur portreti, Bobur haqida yozilgan kitoblar,"Boburnoma"asari,tarqatma materiallar,Bobur hayoti va ijodi aks etgan tarmoq shaklidagi ko'rgazma .

Darsning turi:yangi bilim berish

Asosiy tushuncha va atamalar:ruboiy, shoh va shoir,"Boburnoma",memuar,g'urbat, firoq.

Darsning borishi.I.Tashkiliy qism salomlashish

Davomatni aniqlash.ma'naviyat daqiqasini o'tkazish,bahru-bayt musobaqasini tashkil etish.

II.Otilgan mavzuni so'rash:

1.A.Navoiy haqida qaysi yozuvchi qanday asar yozgan?

2.A.Navoiyning qaysi asarini bilasiz?

3.A.Navoiy qachon va qayerda tavallud topgan?

A.Oripovning “ Alisherning onasi”she’rini yoddan aytib bering.
Rag’bat lantirish ,baholash.

1-guruh” Navoiy“

2-guruh” Bobur”

3-guruh” Qodiriy”.

O’quvchilar o’z guruhlari taqdimotini
qilishadi:”Navoiy”guruhi:Navoiy-buyik shoir, davlat arbobi.
Navoiy-millat g’ururi,donishmand shoir

“ Bobur”guruhi:Bobur-zullisonayn shoir.

Bobur- musiqa ilmining asoschisi, Bobur-buyuk shoir va davlat
arbobi.

“Qodiriy”guruhi: A.Qodiriy-hikoyanavis. A.Qodiriy-tarixiy
romanlar muallifi. A.Qodiriy- jadid adabiyotining vakili.

III.Yangi mavzu bayoni:O’qituvchi Z.M.Bobur 1483-yilning14-
fevralida Andijonda,Farg’ona viloyatining hokimi, Amir
Temurning evarasi umarshayx Mirzo hamda Toshkent hokimi
Yunusxonning qizi Qutlug’ Nigorxonim oilasida dunyoga
keldi.Saroyda temuriy shahzodalarga xos tarbiya olayotgan
Zahiriddinning baxtli bolaligi otasining fojiali o’limi bilan
tugaydi.12 yoshida tong’ich o’gil sifatida otasining taxtiga
o’tirgan, dovyurak va jasurligi uchun bolaligidan “
Bobur“-sher laqabini olgan Zahiriddinning behalovat hayoti
boshlanadi.


“Boburnoma”

“Xatti
Boburiy”, “Hind
devoni”, “Kobul


Z.M.Bobur

“Musiqa ilmi”
“Muxtasar”

“Harb ishi”




- **BOBURNOMA" — jahon adabiyoti va** manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiyilmiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan (taxm. 1518/19—1530). "Boburiya", "Voqeoti Bobur", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburiy" kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa "Vaqoye" va "Tarix" degan nomlarni ishlatgan. "B."da 1494—1529 y.larda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiysiyosiy voqealar yilmayil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'likdir. "B." o'zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko'ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afg'oniston (1504—24) va Hindiston (1524— 30)dagi hukmdorlik davriga bo'linadi. Birinchi qismda Boburning otasi — temuriylarning Farg'ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461—94) xususida hamda Boburning Farg'ona taxtiga o'ltirishi (1494 y. iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o'z ulusidan mahrum bo'lishi (15-a. 90-y.lari), Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jangu jadallari (1497— 1501)ning behuda ketishi, va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog'lari orqali taxm. 250 navkar bilan Afg'onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so'ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg' (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin



esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko'ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyni mag'lub etib (q. Panipat janglari), Shim. Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma'lumotlardan iborat. "B."da keltirilgan barcha ma'lumotlar, xususan Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag'oniyon va Shim. Afg'onistonning 15-a. 80—90-y.lari va 16-a. 1choragidagi siyosiy ahvoliga doyr xabarlar o'zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, asar muallifning muayyan tarixiy voqea haqida hamda o'zaro dushmanlik qilgan temuriylar — Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung'ur Mirzo, Sulton Husayn va b.ning xulqatvori, tabiati xususida bildirgan fikr mulohazalari bilan ham ahamiyatlidir. Asarda, ijtimoiy tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta'limoti, tilshunoslik, jug'rofiya, tabiatshunoslik, ma'danshunoslik, dehqonchilik, bog'dorchilik va b.ga oid aniq va hanuzgacha o'z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Boburning o'zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha kattakichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O'sha davrdagi qo'shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurolyarog' turlari, qurg'onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda asarda ko'plab harbiy ma'muriy istiloxlar (tuman, ulus, ko'kaltosh, eshikog'a, axtachi, tarxon, shig'ovul, sharbatchi (sharbatdor), mubashshir, tug'chi, miroxur, rikobdor, dorug'a, murchil, manjaniq, o'ron va b.) ham uchraydi. Shuningdek, "B."da temuriylar qo'shinining tuzilishi, harbiy san'ati va b. haqida ham noyob ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, Movarounnahr,



Afg'oniston, Xuroson va Hindiston o'tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasbhunari, urfodatlari, rasmlari, an'anaviy tadbirmarosimlari, shuningdek o'sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma'lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg'ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shaharviloyatlarning jug'rofiya'muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, q.x., daryo va suv havzalari, cho'ladirlari, tog'sahrolari, bog'u rog'lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o'simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma'lumotlar beriladi. Xususan 15—16-a.larda Turkiston viloyatida yashagan qora qo'yluk (qo'yunluk) qabilasining hamda Movarounnahrda turkmo'g'ul qabilalarining urfodatlari, harbiy mahoratlari haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa ilmiy jihatdan g'oyatda qimmatli bo'lib, ular o'zbek, qozoq, qirg'iz va b. turkiyzabon xalqlar etnik tarixini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. "B." da Farg'ona, Samarqand sh.lari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O'ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag'oniyon, Badaxshon, Kobul viloyati va b. joylar geografik jihatdan g'oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo'lib, muallif o'zi yurgan yo'llar, o'zi bo'lgan shahar va qishloqlarni g'oyat darajada aniq tasvirlagan. "B."da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomip, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Muhammad Solih kabi o'nlab ijodkorlar, Xoja Abdullo Marvari, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yorak, Shohquli G'ijjakiy, Husayn Udiy, Behzod, Shoh Muzaffar kabi ko'plab san'atkorlar tavsif keltirilgan. asosida ma'lum darajada tiklaganlar. "B." forschaga (1586), undan parchalar Vitsen tomonidan golland tiliga (1705),



A. Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pavle de Kurteyl tomonidan to'la holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. "B."ni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afg'oniston (Abdulxay habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R . R. Arat va N. I. Bayur) kabi mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslari (N. I. Pantusov, S. I. Polyakov, V. Vyatkin) ham "B." dan parchalarni tarjima qilganlar. N. I. Ilminskiy "B."ni Qozonda nashr ettirdi (1857). "B."ni hamda Boburning she'riy merosini o'rganishda o'zbekistonlik olimlar ham salmoqli hissa qo'shdilar. Prof. Fitrat tomonidan tuzilgan "O'zbek adabiyoti namunalari" xrestomatiyasida "B."dan parchalar, Boburning 31 g'azali, 2 masnaviy va 28 ruboiysi berilgan. M. Salye "B."ni rus tiliga to'la tarjima qilib, 3 marta (1958, 1982, 1993) nashr ettirdi (S. Azimjonovanning kirish so'zi va tahriri ostida). P. Shamsiyev va S. Mirzayevlar tomonidan "B."ning ikki jildli (1948) va bir jildli (1960) nashri chop etildi. 1956—66 y.larda Boburning uch jildli tanlangan asarlari chop etilib, unga Boburning she'riy devoni (1jild) va "B." (2—3jildlar) kirgan. Bobur va uning ilmiy merosini o'rganishga S. Azimjonova katta ulush qo'shgan. "B."ning M. Salye tomonidan qilingan tarjimalari uning batafsil so'z boshisi va tahriri ostida nashr etilgan.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash “Bilimlar bulogi’ shartida guruhlar ona tili,matematika, tarix fanlari bo’yicha bilimlari sinaladi.

MATEMATIKA

TARIX

ONA TILI

1-matematik amal 1483-yil shoir Z.M. Boburning tavallud topgan sanasi

2-matematik amal shoir Z.M. Boburning 12 yoshida taxtga o'tirishi

3- matematik amal shoir Z.M. Boburning vafot etgan yili.

Tarix fanidan har bir guruhga savol beriladi

“BOBURNOMA” “asarida qanday tarixiy voqealar aks etgan? 1-guruh. javobi: Unda Movaraunnahr, Xuroson, Eron, Hindiston xalqlarining XV asr oxiri XVI asrning

1-yarmidagi tarixiy, siyosiy – iqtisodiy voqealar o'z aksini topgan.

“BOBURNOMA” asari qanday asar deyiladi? 2-guruh javobi: Bu tarixiy, badiiy, memuar asardir.

“BOBURNOMA” “asarida yana qanday tarixiy voqea aks etgan? 3-guruh javobi: Movaraunnahr, Xuroson, Eron, Hindistonda ro'y bergan voqealar o'z aksini topgan.

Ona tili fanidan guruhlarga: 1 guruhga: sifatlarni

topish, 2-guruhga otlarni, 3-guruhga olmosh so'z turkumlarini topishlari kerak bo'ladi.

1 guruh : Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa,jazo topqusidir.

2- guruh :Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa,jazo topqusidir.

3- guruh :Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa,jazo topqusidir



Mustahkamlash: tarmoq usulida

1483-yilda
Andijonda tugilgan

231ta
ruboiy,119ta
g'azal yozgan

Ruboiylarida
vatanga
muhabbat,ilm
o'rganish,yaxshilik
qilish ni targ'ib
etgan

Z.M.BOBUR
(1483-1530)

1521-yildashe'riy yo'lda soliq ishlarini tartibga
soluvchi :Mubayyin-ul zakot"(“Zakot
bayonj”)asarini yozgan

1523-25-yillarda aruz
vazni haqida
“ Muxtasar“ni yozgan

12 yoshida taxtga
o'tirib, davlat
ishlarini olib borgan

V .Baholash va rag'batlantirish

Guruhlarning javobi umumlashtirilib,baholanadi.

Dars so'ngida faol qatnashgan o'quvchilarga “Eng faol o'quvchi”, “ Eng bilimdon o'quvchi“,“ Eng topqir o'quvchi“, “ Eng faol guruh “nominatsiyalari beriladi.

VI Uyga vazifa:

1.Bobur ruboiylarini yod olish.

2. Asosiy tushuncha va atamalar:”ruboiy, shoh va shoir,”Boburnoma”,memuar,g'urbat, firoq” ni izohini yozib kelish



